IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7

ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 60 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

MUNDARIJA

O‘zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli 20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich

BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili 26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish 31
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich

Korxona iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli 35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi

Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху 40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы

Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector 49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi

Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari 56
Djalilov G‘ayrat Qaxramanovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BANKLARDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Djalilov G'ayrat Qaxramanovich
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada banklarda moliyaviy barqarorlikning vujudga kelishi va uning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan hamda baholangan. Ushbu kategoriyaga nisbatan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o'rganilgan va tizimlashtirilgan. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlariga oid olimlarning qarashlari tahlil qilingan. Tadqiqotlar asosida ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: banklar barqarorligi, kapital yetarliligi, likvidlik, to'lovga qobiliyatsizlik, aktivlar sifati, kapital va aktivlar rentabelligi.

Abstract: The article identifies and evaluates the formation and specific features of financial stability in banks. Scientific studies by local and foreign scholars on this category have been examined and systematized. Views on capital adequacy and liquidity indicators as key elements of ensuring financial stability have been analyzed. Based on the research, scientific conclusions and proposals have been developed.

Key words: bank stability, capital adequacy, liquidity, insolvency, asset quality, profitability of capital and assets.

Аннотация: В статье выявлены и оценены особенности формирования финансовой устойчивости в банках. Изучены и систематизированы научные исследования отечественных и зарубежных учёных по данной категории. Рассмотрены взгляды учёных на показатели достаточности капитала и ликвидности как основные аспекты обеспечения финансовой устойчивости. На основе проведённых исследований разработаны научные выводы и предложения.

Ключевые слова: устойчивость банков, достаточность капитала, ликвидность, неплатёжеспособность, качество активов, рентабельность капитала и активов.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotda banklarning faoliyat olib borishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi pul oqimlarining barqarorligi hamda qo'shimcha qiymat yaratilishining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi banklarning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi. Banklarning iqtisodiyotdagi rolining muhimligi ularning pul muomalasini tartibga solish bilan bog'liq jarayonlarda asosiy kategoriyalardan biri ekanligi bilan izohlash mumkin. Pul kategoriyasining to'laqonli harakati va rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarda uning muomalasini tartibga solishga bo'lgan zaruratning ham kengayib borayotganini qayd etish lozim. Shu bois, banklarning moliyaviy barqarorligi dolzarblik kasb etib, milliy iqtisodiyotdagi e'tiborga molik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Banklarning moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiyotdagi pul muomalasining samarali ishlashiga olib kelishini inobatga olsak, banklarning iqtisodiyotning "qon tomirlari" vazifasini bajarishi ularga alohida o'rin berishini kuzatish mumkin. Iqtisodiyotda pul muomalasini tartibga solish, xususan, pul-kredit siyosatini amalga oshirish jarayonida banklarning vositachilik roli yuqoriligi ularning moliyaviy barqarorligiga bo'lgan zaruratni yaqqol namoyon etadi.

Bizningcha, banklarning moliyaviy barqarorligiga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi iqtisodiyotdagi nobarqarorliklarning kengayishi hamda iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan zarurat bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi geosiyosiy vaziyatning keskinlashib borishi fonida banklarning moliyaviy barqarorligi ayniqsa dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ko'plab moliya institutlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan moliyaviy mezonlar ham nomoliyaviy omillar ta'sirida o'z kuchini yo'qotmoqda. Nomoliyaviy mezonlar sirasiga siyosiy institutlar va qarorlarning moliyaviy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi kabi omillarni kiritish mumkin.

Masalan, jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan siyosiy tarangliklar natijasida shakllanayotgan sanksion xatarlar tijorat banklari uchun nafaqat milliy, balki xalqaro tendensiyalarni ham tahlil qilib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, banklarning moliyaviy barqarorligini ikki xil rakursdan monitoring qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchidan, moliyaviy institutlar tomonidan belgilangan moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan mezonlar mavjud bo'lsa, ikkinchidan, nomoliyaviy ko'rsatkichlarga tayanilgan mezonlarni ham keltirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bu borada prof. O. Sattorov bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan makroprudensial siyosatning o'ziga xos jihatlari o'zining doktorlik dissertatsiyasida aks ettirilganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yagona yondashuvning mavjud emasligi, davlatlarning bank faoliyati va uning qonunchiligi o'zaro bir xil emasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bank tizimi barqarorligi unda inqiroz yuz bermagan holatda, kapitaldan samarali foydalanilsa, kapital aylanishi ta'minlansa hamda risklarni baholash va boshqarish ko'rsatkichlariga erishish imkoniyati mavjud bo'lsa, ta'minlanishi mumkinligi ta'kidlanadi [1].

Shu bilan birga, dots. R. Bozorov tomonidan tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi bajarilgan. U o'z tadqiqotida bank barqarorligi va uning tasnifiy belgilarini beshta guruhga ajratib ko'rsatadi. Jumladan: moliyaviy barqarorlik, umumiy barqarorlik, tijoriy barqarorlik, funksional barqarorlik va tashkiliy-strukturaviy barqarorlik. Shuningdek, banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ayrim muammolar mavjudligini qayd etadi. Xususan: tijorat banklari aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlar ulushining kamligi, kreditlarga nisbatan yaratilgan zaxira miqdorining o'rtacha aktivlarga nisbatan ulushi xorijiy banklarnikidan farq qilishi, investitsiyaviy loyihalar bo'yicha marketing tadqiqotlari, risklarni baholash va hisoblash kabi yo'nalishlardagi ishlarning samarali tashkil etilmasligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda sof joriy qiymat va foydaning ichki me'yoriga e'tibor qaratishni taklif qiladi [2].

Birinchidan, kapital yetarliligi — regulyativ kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo'lib, bu ko'rsatkich bank faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni o'z kapitali hisobidan qoplash imkoniyatini ifodalaydi. Xalqaro Bazel standartlariga ko'ra, regulyativ kapitalning ulushi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan 8 foizdan kam bo'lmasligi belgilangan.

Bu borada ayrim boshqa tadqiqotlarga ham e'tibor qaratish mumkin. Dots. N. Olimjonova o'zining doktorlik dissertatsion tadqiqotida tijorat banklari kapitalida davlat ulushini qisqartirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirishga e'tibor qaratgan. U bank kapitali tarkibida davlat ulushi yuqori ekanligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, bank kapitali belgilangan mezonlardan yuqori bo'lsa-da, undan foydalanish samaradorligiga nisbatan ishonch pasayadi. Boshqa tomondan esa, bank aktivlari tarkibida riskka tortilgan aktivlar ulushining nisbatan past bo'lishi, kapitalga qo'yilgan talablarni ta'minlashga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkinligini qayd etadi [3].

Dots. L. Mirpulatova esa tijorat banklari faoliyati samaradorligini ta'minlashda raqamli bank xizmatlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash va baholashga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirgan. Uning fikricha, tijorat banklarida mobil banking xizmatlarining 1 foiz punktga oshirilishi kapital rentabelligini 3,7 foizga oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali bank operatsiyalarining barqarorligini ta'minlash mumkinligini qayd etadi [4].

Fikrimizcha, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank kapitali kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti aktivlar ortidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan riskli holatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi asosiy bufer funksiyasini bajaradi. Kapitaldan foydalanish samaradorligi bankning risklardan himoyalanishi bilan birga, yuqori daromad olish imkoniyatini ham ta'minlab beradi.

Prof. B. Berdiyarov o'zining doktorlik dissertatsiyasida banklarning to'lovga qobiliyligini ta'minlash yo'nalishlariga oid ilmiy xulosalarni asoslashga e'tibor qaratgan. U tijorat banklarida sof barqaror moliyalashtirish ko'rsatkichining barqarorligini ta'minlash uchun taqsimlanmagan foyda hisobidan uni oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, 2014–2016-yillarda mamlakat tijorat banklari aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining oshganligi, moliyaviy barqarorlik uchun salbiy holat ekanligini ko'rsatib o'tadi. Bundan tashqari, banklarning to'lovga qobiliyligini belgilovchi asosiy ko'rsatkich sifatida regulyativ va birinchi darajali kapitalning rolini ham ta'kidlab o'tadi [5].

Prof. A. Abdullaev tomonidan ham banklarning likvidligi moliyaviy barqarorlikning asosiy omillaridan biri sifatida asoslab berilgan. U o'z ilmiy qarashlarida likvidlikni qoplash me'yorining ahamiyati va sof moliyalashtirish me'yoriga oid yondashuvlarni keltirib o'tadi. Unga ko'ra, sof moliyalashtirish me'yori — banklar faoliyatini uzoq muddatli barqaror manbalar asosida moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, shuningdek, aktiv va passivlarni boshqarishda vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, likvidlik me'yorining joriy etilishi banklar faoliyati barqarorligini ta'minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi [6].

Prof. B. Izbosarov o'zining doktorlik dissertatsiyasida likvidlikni ta'minlash va banklarning daromad barqarorligini o'zaro qarama-qarshi kategoriya sifatida yondashib, bank boshqaruvida har ikkala omil bo'yicha ijobiy natijalarga erishish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tijorat banklari likvidligini tezkor tartibga solishda yuqori likvidli aktivlar ulushini oshirish, riskli aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar ulushini kamaytirish, qimmatli qog'ozlar ulushini oshirish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslarini aniqlash, ularning shakllanishi, asosiy konsepsiyalari va rivojlanish bosqichlarini chuqur tahlil qilish maqsad qilingan. Shu munosabat bilan tadqiqot davomida ilmiy-analitik yondashuvlar va mantiqiy izchillik asosida metodologik asoslar ishlab chiqildi. Avvalo, mavjud ilmiy qarashlar, xalqaro tajribalar, qonunchilik hujjatlari hamda nazariy konsepsiyalar tahlil qilinib, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish asosida banklarning moliyaviy barqarorligini belgilovchi omillar aniqlandi. Bu jarayonda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiy, tizimli va kompleks yondashuvlar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Xususan, banklar moliyaviy barqarorligining evolyutsiyasi va nazariy kategoriyalarning shakllanishi tarixiy ketma-ketlikda ko‘rib chiqilib, moliyaviy barqarorlik tushunchasining mohiyati keng qamrovli yondashuvlar bilan izohlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Bazel qo‘mitasi kabi nufuzli moliyaviy institutlarning me’yoriy hujjatlari, statistik ma’lumotlari va xalqaro standartlar asosida tahliliy mezonlar shakllantirildi. Tadqiqotda foydalanilgan manbalar chuqur tahlil qilinib, banklarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi omillar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi hamda bank tizimi faoliyatini optimallashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) qarori asosida, kapitalning monandliligi yoki yetarliligi koeffitsientiga nisbatan qo‘yilgan talab 13 foiz etib belgilanganligini qayd etish lozim.

Kapital yetarliligi koeffitsienti banklarning moliyaviy barqarorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu omilning belgilangan mezonlar doirasida ushlab turilishi va nazorat qilinishi bank tizimidagi inqirozli holatlarning oldini olishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yildagi 14/3-sonli qaroriga binoan, bank ustav kapitalining minimal miqdori 2025-yildan boshlab 500 mlrd so‘mdan kam bo‘lmasligi belgilangan. Mazkur hujjatda ko‘rsatilgan talablar asosida, banklarning ustav kapitalining shakllanish tendensiyalarini 1-jadvalda ko‘rish mumkin. 2024-yil 1-iyun holatiga ko‘ra, tijorat banklari soni 35 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil shu sanaga kelib bu ko‘rsatkich bittaga oshgani kuzatilgan.

Zotan, kapitalga qo‘yilgan talablarning ortishi tijorat banklari sonining ham ko‘payishiga sabab bo‘lganligi, mazkur jarayonni ilmiy tadqiqotlar orqali tahlil qilishga qiziqarli faktlar taqdim etishini ta’kidlash joiz, deb o‘ylaymiz.

Umuman olganda, tijorat banklarining jami va ustav kapitali miqdori hamda ulushi ortib borayotganini kuzatish mumkin.(1-jadval)

1-jadval. Tijorat banklarining jami va ustav kapitali bo‘yicha guruhlanishi [8]

Ko‘r-satkich nomi	Jami		shulardan:											
		500 mlrd. so‘mgacha		500 mlrd – 1 trln so‘m		1 trln – 2 trln so‘m		2 trln – 5 trln so‘m		5 trln – 10 trln so‘m		10 trln so‘m va yuqori		
	bank-lar soni	summa (mlrd. so‘m)	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi (%)	soni	ulushi (%)	soni	ulushi (%)	soni	ulushi (%)	soni	ulushi (%)
01–06–2024														
Jami kapital	35	102 749	12	4,1%	3	2,1%	6	8,1%	8	26,9%	4	29,0%	2	29,7%
shundan, ustav kapitali	35	71 024	14	6,2%	7	5,6%	6	10,7%	4	21,3%	2	19,2%	2	37,0%
01–06–2025														
Jami kapital	36	121 491	6	1,5%	9	4,9%	5	6,3%	7	18,3%	6	33,2%	3	35,8%
shundan, ustav kapitali	36	87 069	4	1,2%	18	11,9%	4	6,4%	4	15,0%	3	20,6%	3	44,8%

Masalan, 5 trln so‘m va 10 trln so‘mdan yuqori kapitalga ega bo‘lib borayotgan banklarning ulushi 2024–2025-yillarda ortganligi kuzatiladi. Bu esa tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga bo‘lgan qat’iy pozitsiyasi tobora mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi (1-jadval).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, banklarning moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish orqali uni ta’minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Bunda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, bank barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, bank barqarorligini shakllantiruvchi huquqiy-institutsional tizimning takomillashuvi hamda milliy manfaatlarning inobatga olinganligi kabi omillarni tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, bank moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan makroprudensial va korporativ instrumentlarning o‘zaro muvofiqlashtirilganligi hamda integratsion xususiyat kasb etishi lozim.

To‘rtinchidan, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni makroiqtisodiy hamda mikroiqtisodiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan amaliyotni rivojlantirishga ustuvorlik berish zarur, deb o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sattorov O. B. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta’minlash metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TMI, 2018. – 67 bet.
2. Bozorov R. X. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashni takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi BMA, 2020. – 52 bet.
3. Olimjonova N. A. Tijorat banklari kapitalida davlat ulushini kamaytirish yo‘llari: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi BMA, 2024. – 53 bet.
4. Mirpulatova L. M. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘llari: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi BMA, 2025. – 65 bet.
5. Berdiyarov B. T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalari: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi BMA, 2020. – 74 bet.
6. Abdullaev A. Ya. Tijorat banklarining likvidlik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2018. – 74 bet.
7. Izbosarov B. B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari likvidligini tartibga solish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TMI, 2019. – 58 bet.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari. – https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2563296/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2025. № 7

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz